

TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATI

Hayitova Dildora

Navoiy Davlat pedagogika insituti magistrature mutaxassisligi 2-bosqich talabasi

Hayitov Zafar

Ilmiy rahbar dotsent

Kalit so'zlar: Jadidchilik harakati, Abdurauf Fitrat, Abduqodir Shakuriy, Turkiston jadidchiligi, Xiva jadidchiligi, Buxoro jadidchiligi, Ismoil G'aspirali

O'zbekiston buyuk kelajagi uning tarixan tarkib topgan umuminsoniy qadriyatlari va ulug' tarixiga bo'lgan ehtirom asosida tarkib topadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili» dasturidan yoshlarimizni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash masalasi alohida o'rin egallashi tabiiydir. Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'ilqizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana, ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar: «Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-xurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z otalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq». Qarang, qanday bebaho, oltinga teng so'zlar¹²» deganlarida jamiyat taraqqiyoti uchun tarbiyaning va ta'limning naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan edilar. O'zbekiston tarixini o'rganishdagi muhim omillardan biri - uni xolisona tahlil etish, ilmiy-nuqtai nazardan asoslab berishdir.

XIX asr oxiri-XX asrning boshlarida siyosiy, madaniy, iqtisodiy jihatdan inqiroz xolatiga tushib qolgan, mustamlaka tufayli rivojlanish past darajada bo'lgan o'lkada Turkiston ziyolilari chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmidan qutulish, o'z milliy davlatchiligini tuzish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga yo'l ochish, xalqqa ziyo tarqatish choralari ko'rdi. Bu borada jadidchilik xarakati katta rol o'ynadi. Turkiston mintaqasida jadidchilik xarakati, tarqalish joyi va yo'nalishiga ko'ra uchga bo'linadi; Turkiston, Buxoro, Xorazm jadidchiligi. Bugungi kunda respublikamiz tarixchi olimlari jadidchilik xarakatida quyidagi uchta bosqichni farqlashmoqda: 1) XIX asr oxirlaridan 1915 yilgacha - ma'rifatchilik; 2) 1915 yildan 1918 yil fevraligacha -

¹² Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган маросимдаги маърузаси. 08 декабр 2016.

muxtoriyatchilik; 3) 1918 yil fevralidan 20 yillar oxirlarigacha - sovetlar davridagi faoliyati. Jadidchilik Rossiyaga qaram bo'lgan musulmon xalqlari orasida dastlab Qrimda XIX asrning 80-yillarida paydo bo'ldi. Uning asoschisi diniy-dunyoviy ilmlarni chuqur egallagan Ismoilbek Gaspirali (1851-1914) bo'ldi, jadid atamasi yangilik tarafdorlarini, yangilik g'oyalarini ifoda etuvchi tushuncha sifatida qo'llanilgan. U Boqchasaroyda dastlabki "usuli jadid" (yangi usul) maktabini 1884 yilda ochadi. Ismoilbek Gasprinskiyning eng katta xizmati Rossiya sarhadlarida yashab turgan, lekin zamonning zayli bilan bir-biridan uzoqlashib, begonalashish darajasiga yetgan turkiy xalqlarni bir-biriga tanitdi, yaqinlashtirdi. Butun boshli ilg'or marifatparvar, ziyolilar qatlamini yetishtirdi. Sharq xalqlari ma'naviy hayotida, xususan, maktab-maorifda chinakam inqilob yasadi XIX asrning oxirlarida dunyo tamaddunida bo'layotgan ulkan madaniy –ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, yangi munosabatlar u yoki bu tarzda sekinlik bilan bo'lsada, Turkiston o'lkalariga kirib kela boshladi. Yangilik tarafdorlarini Abdulla Avloniy so'zi bilan aytganda, "gazeta o'qig'uvchilarni" mullalar "jadidchi" nomi bilan atar edilar.

Jadidlarning xalq ma'rifati uchun kurash dasturi uch asosiy yo'nalishda ko'rinadi. 1. Yangi usul maktablarini ochish, ko'paytirish orqali. 2. Turli ma'rifiy jamiyatlar ochish orqali. 3. Umidli iqtidorli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish orqali. Bog'chasaroyda dastlabki jadid maktabini ochgan Ismoil Gaspirinskiy Turkiston general-gubernatori N.O.Rozenbaxga o'lka musulmon maktablarini ham isloh qilishga doir loyihasini yuboradi. Rad javobini olgach, 1893 yil Turkistonga o'zi keladi, Buxoro, Samarqand, Toshkentda bo'lib, taraqqiyparvar ziyolilar bilan uchrashuvlar o'tkazadi. Buxoroda amir Abdulaxadni jadid maktabi ochishga ko'ndiradi. Bu maktabga "Muzaffariya" nomi beriladi. 1900 yilda Andijonda Shamsuddin domla, 1901 yilda Qo'qonda Saloxiddin domla, Samarqandda Abduqodir Shakuriylar birinchi bo'lib jadid maktablarini ochadilar

Turkiston jadidlarining tarixiga nazar tashlar ekanmiz turli adabiyotlarda ularga zamonasining muhitiga qarab o'z ta'rifini berishgan. Masalan, jadidlarning faoliyati haqida Fayzulla Xo'jayev birinchilardan bo'lib harakatni ikki yo'nalishda bo'lganini ko'rsatib bergan: "Shunday qilib, sentabr revolyutsiyasi boshlanguncha Oktabr va uning oqibatlari tufayli vujudga kelgan jadidlar tashkilotlarining tabaqalanishi uzil-kesil rasmiylashdi, bu harakat bir-biridan butunlay boshqa bo'lgan ikki qismga bo'lindi: Uning birinchi qismi Buxoro Kommunistik partiyasiga kirib, o'z taqdirini Oktabr revolyutsiyasi va jahon kommunistik harakatining taqdiri bilan, jahon sotsial revolyutsiyasi uchun kurash bilan qo'shdi va birlashtirdi. Jadidlarning

Oktabrgacha bo‘lgan qismi esa fevralgachagi pozitsiyalarda qolib o‘zining millatchilik ideologiyasini tark etmadi”¹³

Fikrimizning xulosasida Turkistonda vujudga kelgan jadidlikning asosiy bosh maqsadi jamiyat taraqqiyoti uchun lozim bo‘lgan barcha sohalarda innovatsion g‘oyalarni joriy qilish edi. Bu bilan jadidlar xalqning yashash tarzini o‘zgartirishni, ularning ma’naviy ongini rivojlantirishni asosiy maqsadlaridan biriga aylantirgan. Jadidlar Turkistonda milliy rivojlanish pozitsiyasining boshida jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyotini ta’minlash g‘oyasini olib chiqdi. Ular siyosiy faoliyatida mustaqillik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan maqsadni ilgari surdi. Bu harakatni biz jadidlarning Chor Rossiyasining tajovuziga qarshi qaratilgan kurashida ko‘rishimiz mumkin. Jadidlar milliy rivojlanish bilan qaramlikka qarshi kurashmoq lozimligini angladi. Bu g‘oyalar jadidlar siyosiy faoliyatining asosini tashkil etdi. Shuning uchun jadidlar mazlum xalqni ozodlik kurashiga chorladi.

1. ¹³ Xo‘jayev. Tanlangan asarlar: uch tomlik. –T.: Fan, 1976. 1-tom.